



SOLIQ MEKANIZMLARI ORQALI IQTISODIYOT TARMOQLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

To'laganova Feruza

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-3687-1707

feruzkatulaganova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va tartibga solishda soliq mexanizmining o'рни hamda ahamiyati tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida soliq siyosati orqali tarmoqlarni rag'batlantirish, soliq yukini optimallashtirish va selektiv soliq mexanizmlarini joriy etish masalalari tahlil qilingan. Olingan natijalar asosida iqtisodiyot tarmoqlarini soliq mexanizmi orqali tartibga solishni takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq mexanizmi, soliq siyosati, iqtisodiyot tarmoqlari, soliq imtiyozlari, differensial soliq stavkalari.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СЕКТОРОВ ПОСРЕДСТВОМ НАЛОГОВЫХ МЕХАНИЗМОВ

Тулаганова Феруза

Ташкентский государственный

экономический университет

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение налогового механизма в развитии и регулировании экономических секторов. В ходе исследования были проанализированы вопросы стимулирования секторов посредством налоговой политики, оптимизации налоговой нагрузки и внедрения селективных налоговых механизмов. На основе полученных результатов были разработаны научно-практические предложения по совершенствованию регулирования экономических секторов посредством налогового механизма.

Ключевые слова: налоговый механизм, налоговая политика, экономические секторы, налоговые льготы, дифференцированные налоговые ставки.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF STATE REGULATION OF ECONOMIC SECTORS THROUGH TAX MECHANISMS

Tolaganova Feruza

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article examines the role and importance of the tax mechanism in the development and regulation of economic sectors. The study analyzed the stimulation of sectors through tax policy, optimization of the tax burden, and the implementation of selective tax mechanisms. Based on the findings, scientific and practical proposals were developed for improving the regulation of economic sectors through the tax mechanism.

Keywords: tax mechanism, tax policy, economic sectors, tax incentives, differential tax rates.

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan iqtisodiyot tarmoqlarini tartibga solish va rivojlantirishda soliq mexanizmi muhim instrumentlardan biri hisoblanadi. Soliq vositalari orqali davlat iqtisodiyotning turli sohalariga ta'sir ko'rsatib, ularni rivojlantirish yoki tartibga solish imkoniga ega. Xususan, soliq imtiyozlari, soliq stavkalari va qo'shimcha soliq majburiyatlari yordamida davlat muayyan sohalarni qo'llab-quvvatlashi, investitsiya muhitini yaxshilashi hamda ishlab chiqarishni ko'paytirishi yoki ortiqcha resurs sarfini kamaytirishi mumkin.

Davlat soliq siyosatini ishlab chiqishda iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy va funksional xususiyatlarini kompleks tahlil qiladi hamda ushbu xususiyatlarga moslashtirilgan soliq mexanizmlarini joriy etadi. Har bir tarmoq o'ziga xos rivojlanish shart-sharoitlari va ustuvor yo'nalishlariga ega bo'lib, bu holat soliqqa tortish yondashuvlarining farqlanishini taqozo etadi. Xususan, sanoat tarmog'ida investitsion faollikni oshirish va ishlab chiqarish hajmini kengaytirish maqsadida soliq imtiyozlaridan foydalaniladi, qishloq xo'jaligida esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan ekologik soliqlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xizmatlar sohasida soddalashtirilgan soliq rejimlarining qo'llanilishi kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu sababli, iqtisodchi olimlar o'rtasida iqtisodiyot tarmoqlarini soliq mexanizmi orqali tartibga solishni takomillashtirish yo'llarini tadqiq etish va ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish masalasi yuqori qiziqish uyg'atmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda davlatning iqtisodiyot tarmoqlarini tartibga solishdagi roli, ayniqsa yuqori riskli va strategik sohalarda, tobora muhim ilmiy muammo sifatida talqin qilinmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar davlat aralashuvining shakli, ko'lam va instrumentlarini nazariy hamda metodologik jihatdan asoslashga qaratilgan.

Mykhailov (2025) o'z tadqiqotida moliyaviy sektor, yuqori leverage ga ega tarmoqlar hamda texnologik jihatdan riskli sohalarni "xavfli tarmoqlar" sifatida ajratib, ularni tartibga solishning nazariy va metodik asoslarini tahlil qiladi. Muallif ushbu tarmoqlarni to'liq bozor mexanizmlariga topshirish makroiqtisodiy beqarorlik va inqirozlarning chuqurlashishiga olib kelishini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, davlat aralashuvi barqaror iqtisodiy o'sishning zarur sharti sifatida asoslanadi. Muallif tomonidan ilgari surilgan "muvozanatli aralashuv" konsepsiyasi bozor signallarini buzmasdan, tizimli risklarni kamaytirishga qaratilgan bo'lib, mustaqil reguliator institutlari, moslashuvchan siyosat choralari hamda xalqaro hamkorlik mexanizmlarini talab etadi. Ayniqsa, big data, sun'iy intellektga asoslangan komplayens monitoringi va blokcheyn raqamli texnologiyalar orqali moliyaviy oqimlarni shaffoflashtirish – zamonaviy tartibga solishning metodologik tayanchi sifatida ko'rsatiladi.

Davlat tartibga solishining sektorlar kesimidagi zarurligi agrar soha misolida ham asoslab berilgan. Volska va hammualliflar (2019) qishloq xo'jaligi bozorida to'liq erkinlik oziq-ovqat xavfsizligi, resurslardan oqilona foydalanish va qishloq hududlarining barqaror rivojini ta'minlay olmasligini ta'kidlaydi. Mualliflar davlat tartibga solish mexanizmlarini siyosiy-huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy rag'batlantiruvchi yo'nalishlarga ajratib, ularning o'zaro uyg'unligi muhimligini ko'rsatadi. Tadqiqotda asosiy e'tibor davlat maqsadlarining to'g'ri belgilanishi va institutlar samaradorligiga qaratilib, aynan shu omillar bozor mexanizmlariga ortiqcha ma'muriy bosimni kamaytirishi mumkinligi asoslanadi. Bu yondashuv davlat tartibga solishini majburiy aralashuv emas, balki sharoit yaratishga yo'naltirilgan tizim sifatida talqin qiladi.

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning soliq instrumentlarining tarmoqlar rivojiga ta'siri masalasi Ivanchenkov (2025) tadqiqotida markaziy o'rin tutadi. Muallif soliq siyosatini davlat xarajatlari va davlat qarzini boshqarish bilan uzviy bog'liq yagona mexanizm sifatida ko'rib, uning strukturaviy o'zgarishlarga ta'sirini nazariy-metodologik jihatdan

asoslaydi. Ivanchenkov tomonidan taklif etilgan "tizimli, kompleks va lokal" soliq instrumentlari tasnifi soliq mexanizmlarining iqtisodiyot tarmoqlariga differensial ta'sirini tushuntirish imkonini beradi. Xususan, maqsadli soliq imtiyozlari, investitsion va innovatsion rag'batlar, eksport va hududiy preferensiyalar ustuvor tarmoqlar rivojini jadallashtirishda eng samarali vosita sifatida ko'rsatiladi. Ushbu yondashuv rivojlanayotgan iqtisodiyotlar, jumladan O'zbekiston sharoitida ham qo'llash imkoniyatiga ega deb xisoblaymiz.

Soliqlar yordamida tartibga solishining institutsional va boshqaruv jihatlarini Koroviy (2020) tomonidan chuqur tahlil qilingan. Muallif soliq mexanizmini fiskal va rag'batlantiruvchi funksiyalar muvozanatini ta'minlovchi markaziy institutsional tizim sifatida talqin qiladi. Tadqiqotda soliq mexanizmi faqat stavkalar va bazalar bilan cheklanmasdan, prognozlash, rejalashtirish, soliq ma'murchiligi sifati va xavflarni boshqarish elementlarini ham qamrab oluvchi kompleks tizim sifatida ko'rsatiladi. Empirik tahlil asosida soliq tushumlari dinamikasi, qarzdorlik va ortiqcha to'lovlar muammolari aniqlanib, soliq siyosatini oldindan rejalashtirish va ma'murchilikni takomillashtirish zarurligi asoslanadi.

Guvohi bo'lganimizdek, olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar davlat tomonidan iqtisodiyot tarmoqlarini, jumladan yuqori riskli hamda ustuvor sohalarni tartibga solishda soliq mexanizmlarining muhim o'rnini tasdiqlaydi. Ushbu adabiyotlar soliq instrumentlarini nafaqat fiskal manba, balki makrobarqarorlik, strukturaviy o'sish va institutsional rivojlanishni ta'minlovchi samarali tartibga solish vositasi sifatida talqin qilish uchun mustahkam nazariy-metodologik asos yaratadi.

Shu bois soliq mexanizmlarining iqtisodiyot tarmoqlarini tartibga solishdagi samaradorligini kompleks va tizimli yondashuv asosida o'rganish, ularning fiskal, rag'batlantiruvchi va institutsional funksiyalarini o'zaro uyg'unlikda tahlil qilish ilmiy hamda amaliy jihatdan muhim sanaladi. Bunday tadqiqotlar nafaqat nazariy konsepsiyalarni boyitadi, balki davlatning iqtisodiy siyosatini takomillashtirish, ustuvor tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi deb xisoblaymiz.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada soliq mexanizmlarining iqtisodiyot tarmoqlarini tartibga solishdagi rolini o'rganishda qiyosiy, tizimli va strukturaviy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, induksiya va deduksiya usullari yordamida nazariy xulosalar shakllantirilib, soliq mexanizmlarining makrobarqarorlik va tarmoqlar rivojiga ta'siri konseptual jihatdan asoslab berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliq mexanizmlari orqali iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish masalasini tadqiq etishda klassik iqtisodiy nazariyalar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu nazariy yondashuvlar soliqlarning iqtisodiy jarayonlardagi o'rnini, ularning fiskal va tartibga soluvchi funksiyalari hamda davlatning iqtisodiyotga aralashuv mexanizmlarini tushuntirib berishga imkon yaratadi. Shu bois, mazkur mavzuni chuqur o'rganishda iqtisodiy tafakkur tarixida shakllangan nazariy qarashlarni tahlil qilish va ularni zamonaviy tadqiqotlar uchun konseptual asos sifatida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Klassik siyosiy iqtisodiyotning asoschilaridan biri bo'lgan Petti (1899) soliqlarni mamlakat boyligiga ta'siri nuqtayi nazaridan tahlil qilgan. Uning fikricha, soliqlar mamlakatdagi pul miqdoriga bevosita ta'sir ko'rsatmaydi, shu sababli ular umumiy milliy boylikni oshirmaydi ham, kamaytirmaydi. Pettining ta'kidlashicha, agar soliq tushumlari ichki ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga yo'naltirilsa, ular aholi uchun zararli bo'lmaydi, balki boylikning qayta taqsimlanishiga xizmat qiladi hamda davlat xarajatlarini moliyalashtirish imkonini beradi. U soliqlarni sug'urta badallariga qiyoslab, soliq to'lovchilar davlatga xavf

yuzaga kelgan taqdirda jamoat tartibini va mulkni himoya qilish xarajatlarini qoplash uchun mablag' to'lashini asoslab bergan.

Klassik iqtisodiy maktab vakili Smit (1776) davlatning iqtisodiyotga minimal aralashuvi g'oyasini ilgari surgan va soliqlarni asosan davlat byudjetini to'ldirish manbai sifatida talqin qilgan. Shu bilan birga, u soliqlardan milliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida foydalanishga cheklangan darajada yo'l qo'ygan. Smit soliqlar manbai sifatida renta, foyda va ish haqini ajratib ko'rsatgan hamda fiskal siyosatning nazariy poydevorini tashkil etuvchi to'rtta asosiy tamoyilni, ya'ni, adolatlilik, aniqlik, qulaylik va tejamkorlik prinsiplarini shakllantirgan. Ushbu tamoyillar keyinchalik soliq siyosatini baholashning universal mezonlariga aylangan.

Rikardo (1817) soliqlarni faqat fiskal vazifani bajaruvchi vosita sifatida baholab, ularni kapital jamg'arish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi "muqarrar yovuzlik" sifatida talqin qilgan. U soliqlar, narxlar va daromadlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni asoslab, har qanday tovar uchun joriy etilgan soliq ishlab chiqarish foydasini pasaytirishga moyil ekanini ko'rsatib bergan. Rikardo bevosita va bilvosita soliqlar o'rtasidagi munosabatni tahlil qilib, birinchi navbatda hashamat tovarlarini soliqqa tortish, zaruriy iste'mol mahsulotlarini esa nisbatan himoyalash zarurligini ta'kidlagan.

Marjinalistlar, xususan Marshall (1890), bilvosita soliqlar bilan jamiyat farovonligi o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, davlat aralashuvi iqtisodiyotda ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qilishi lozim. Marshall kamayib boruvchi rentabellikka ega tarmoqlarga bilvosita soliqlar qo'llash, ortib boruvchi rentabellikka ega sohalarni esa subsidiyalash tarafdori bo'lgan, doimiy rentabellikka ega tarmoqlarda esa davlat aralashuvini cheklash zarurligini ilgari surgan. Shu tariqa, fiskal siyosatning mohiyati jamiyat farovonligiga ta'sir ko'rsatuvchi soliq mexanizmlarini joriy etish bilan izohlangan.

Marjinalist nazariya doirasida Viksell fiskal siyosat masalalarini tahlil qilib, byudjet daromadlarining asosiy qismi bilvosita soliqlardan emas, balki daromad va mulkka solinadigan bevosita soliqlardan shakllanishi lozimligini asoslab bergan (Belova, 2012). Viksell soliqlarni davlat xarajatlarini uzluksiz moliyalashtirish vositasi sifatida baholab, barcha soliq qarorlari jamiyat manfaatlari va ijtimoiy tanlovni aks ettirishi zarurligini ta'kidlagan. U fiskal siyosatni chegaraviy foydalilik nazariyasi asosida, jamoat farovonligiga tatbiq etgan holda izohlagan.

Fiskal siyosat muammolari Pigou (1924) tomonidan ham chuqur o'rganilgan. U mavjud daromad solig'i jamg'armalarga nisbatan diskriminatsion xarakterga ega ekanini ko'rsatib, jamg'arishni rag'batlantirish maqsadida umumiy xarajatlar solig'ini joriy etishni taklif qilgan. Shuningdek, daromad solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini tizimlashtirish hamda mehnat resurslariga soliq joriy etish orqali mehnat faolligini oshirish g'oyasini ilgari surgan.

Keynschilik nazariyasi doirasida Samuelson (1948) fiskal siyosatni iqtisodiyotni tartibga solishning eng muhim vositalaridan biri sifatida baholab, soliqlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ishsizlik va inflyatsiyani kamaytirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlagan.

Taklif iqtisodiyoti vakili Laffer (1979) soliqlar stavkalarining yalpi taklifga ta'sirini markaziy masala sifatida ko'rib chiqqan. Uning fikricha, haddan tashqari yuqori soliq yuki iqtisodiy subyektlar faolligini pasaytiradi, ishlab chiqarish hajmini qisqartiradi va iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi. Laffer fiskal siyosatni soliq stavkalari va byudjet tushumlari o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati sifatida talqin qilgan.

Monetarizm vakili Friedmen (1962) esa davlatning iqtisodiyotga minimal aralashuvi tarafdori bo'lib, pul massasining o'sish sur'atlarini nazorat qilishni ustuvor deb hisoblagan. Uning fikricha, fiskal siyosat natijasida pul massasining notekis o'sishi iqtisodiy beqarorlikka olib keladi. Shu sababli Friedmen soliq stavkalarini pasaytirish tarafdori bo'lib, bu tadbirkorlik faolligi, bandlik, investitsiyalar o'sishiga hamda inflyatsiyaning pasayishiga xizmat qilishini asoslab bergan.

Zamonaviy iqtisodiy fikr vakili Stiglitz (1986) fiskal siyosatda soliq yuklamasi, kapitalni soliqqa tortish, optimal soliq tizimi va soliq islohotlariga alohida e'tibor qaratgan. U soliq tizimini baholashda besh asosiy tamoyilni, iqtisodiy samaradorlik, ma'muriy soddalik, siyosiy javobgarlik, moslashuvchanlik va adolatlilikni ajratib ko'rsatgan. Stiglitzning fikricha, optimal soliq tuzilmasi jamiyat farovonligini maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi.

Jamoat tanlovi nazariyasi vakili Buchanan va Wagner (1977) fiskal siyosat muammolarini konstitutsiyaviy iqtisodiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilgan. Ular davlat byudjetining muvozanatini ta'minlash uchun soliq va davlat xarajatlari ustidan konstitutsiyaviy cheklovlar joriy etish zarurligini asoslab berganlar. Mualliflarning hukumat soliqlarni oshirish orqali o'z manfaatlarini maksimal darajada kengaytirishga intilishini tanqid qilib, fiskal qarorlarni qat'iy institutsional cheklovlar doirasida qabul qilish zarurligini ta'kidlaganlar.

Keltirilgan nazariy yondashuvlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq mexanizmlari iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning markaziy vositalaridan biri sifatida turli iqtisodiy maktablar doirasida turlicha talqin etilgan. Klassik siyosiy iqtisod vakillari soliqlarni asosan fiskal va taqsimlovchi funksiyalar nuqtayi nazaridan baholagan bo'lsa, marjinalistlar va keynschilar ularning jamiyat farovonligi hamda makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siriga alohida e'tibor qaratgan. Neoklassik, monetar va taklif iqtisodiyoti vakillari esa soliq yukining iqtisodiy faollik, investitsiyalar va iqtisodiy o'sish bilan o'zaro bog'liqligini asoslab bergan. Zamonaviy iqtisodiy qarashlarda esa soliq siyosati samaradorlik, adolatlilik va institutsional cheklovlar bilan uyg'un holda ko'rib chiqiladi. Mazkur nazariy yondashuvlar soliq mexanizmlarining iqtisodiyot tarmoqlarini davlat tomonidan tartibga solishdagi rolini tushuntiruvchi muhim konseptual asosni shakllantiradi hamda keyingi empirik va amaliy tadqiqotlar uchun metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Aynan shu nazariy evolyutsiya soliq mexanizmlarining mazmun va funksional imkoniyatlari vaqt o'tishi bilan kengayib borganini ko'rsatadi. Shuning uchun ham ularning iqtisodiyot tarmoqlarini davlat tomonidan tartibga solishdagi nazariy va amaliy salohiyatini yanada aniqlashtirish maqsadida zamonaviy iqtisodiy qarashlarni alohida tahlil qilish zarurati yuzaga keladi. Chunki hozirgi sharoitda soliq siyosati nafaqat fiskal vosita, balki tarmoqlar tarkibini shakllantirish, ustuvor yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlash va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks tartibga solish mexanizmi sifatida talqin etilmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy qarashlar doirasida Poliakov (2025) soliq siyosatini iqtisodiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishning markaziy instrumenti sifatida talqin qiladi. Muallif taklif iqtisodiyoti konsepsiyasiga tayanib, mo'tadil va iqtisodiy faollikni cheklamaydigan soliq yukini saqlash ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish orqali uzoq muddatli o'sish uchun institutsional zamin yaratishini asoslaydi. Soliq siyosati samaradorligi faqat fiskal tushumlarni shakllantirish bilan cheklanmasdan, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va fiskal barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash bilan baholanishi lozimligi ta'kidlanadi. Progressiv daromad solig'i tizimi ijtimoiy tenglikni ta'minlash vositasi sifatida ko'riladi, biroq uning darajasi iqtisodiy rag'batlarga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan optimal parametrlar asosida belgilanishi zarurligi qayd etiladi.

Poliakov o'z nazariy xulosalarini empirik ma'lumotlar bilan asoslaydi hamda 2000-2023 yillarda Yevropa Ittifoqi davlatlari va Ukrainada soliq tushumlarining YaIMga nisbatini tahlil qilib, Markaziy Yevropa hamda Boltiqbo'yi mamlakatlarida soliq yukining nisbatan pastligi soliq tizimini raqobatbardosh qilishga qaratilgan ongli siyosat natijasi ekanini ta'kidlaydi. Shu davr mobaynida ko'plab Yel mamlakatlarida o'rtacha daromad solig'i 6 foiz punktiga, korporativ soliq esa 11 foiz punktiga pasaytirilgan investitsion faollikni oshirish va soliq yukining iqtisodiy faollikka salbiy ta'sirini yumshatishga qaratilgan amaliy choralar sifatida baholanadi. Bundan tashqari, maqsadli soliq imtiyozlari, investitsion chegirmalar va kredit mexanizmlarining qo'llanilishi iqtisodiy rivojlanishni yo'naltirish va ustuvor tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashning samarali vositasi sifatida ko'rsatiladi; soliq ma'murchiligini

raqamlashtirish va intizomni kuchaytirish esa fiskal barqarorlik hamda institutsional ishonchni mustahkamlovchi omil sifatida e'tirof etiladi.

Ivanchenkov (2025) ushbu yondashuvni yanada chuqurlashtirib, soliq instrumentlarini bevosita tuzilmaviy transformatsiyani ta'minlovchi mexanizm sifatida tahlil qiladi. Muallif soliq siyosatini davlat xarajatlari va davlat qarzi boshqaruvi bilan integratsiyalashgan holda ko'rib, aynan ushbu kombinatsiya orqali iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini o'zgartirish, investitsion faollikni qayta yo'naltirish va raqobatbardoshlikni oshirish mumkinligini asoslaydi. Soliq vositalarining tizimli, kompleks va lokal shakllarga ajratilishi davlat tartibga solishining differensial xarakterini ochib beradi hamda soliq mexanizmlarini ustuvor va innovatsion tarmoqlarga maqsadli yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, soliq imtiyozlarining samaradorligi ularning aniq maqsadli dizayni va fiskal intizom bilan uyg'unlashgan holda qo'llanishiga bog'liqligi qayd etiladi.

Amaliy jihatdan Ivanchenkov (2025) tomonidan taklif etilgan instrumentlar Poliakov (2025) ilgari surgan mo'tadil va rag'batlantiruvchi soliq siyosati konsepsiyasini aniq vositalar orqali boyitadi. Xususan, tezlashtirilgan amortizatsiya, investitsiya chegirmalari va soliq kreditlari texnologik modernizatsiyani jadallashtirish vositasi sifatida ko'riladi; ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar xarajatlariga beriladigan soliq preferensiyalari innovatsion tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmi sifatida asoslanadi. Eksportni rag'batlantirish, mintaqaviy imtiyozli rejimlar hamda bandlik va kadrlar tayyorlash bilan bog'liq soliq choralarining qo'llanishi esa soliq mexanizmlarining iqtisodiyot tarmoqlarini davlat tomonidan maqsadli tartibga solishdagi real amaliy imkoniyatlarini namoyon etadi. Shu tariqa, soliq siyosati makro darajadagi barqarorlik maqsadlaridan tashqari, tarkibiy o'zgarishlarni boshqarish va ustuvor tarmoqlarni rivojlantirishning samarali instrumenti sifatida talqin etiladi.

Null (2025) soliq instrumentlarining tarkibiy transformatsiyadagi o'rnini empirik va raqamli metodlar orqali chuqurlashtiradi. Muallif davlat solikli tartibga solish samaradorligini baholashda statistik-ekonometrik modellardan foydalanishni taklif qilib, soliq siyosatini nazariy darajadan amaliy hisob-kitoblar bosqichiga olib chiqadi. Tadqiqotda mintaqaviy korxonalar ma'lumotlari, xususan, soliq to'lovlari, tushum, xarajatlar, asosiy vositalar qiymati, xodimlar soni va mehnat unumdorligi asosida regressiya tenglamalari qurilib, foyda solig'i kabi asosiy instrumentlarning korxona ko'rsatkichlariga ta'siri aniqlanadi.

Amaliy jihatdan ushbu metodika davlat organlariga soliq tushumlarini strategik rejalashtirish va hududiy resurslarni optimal taqsimlashda qo'llanishi mumkin bo'lgan analitik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Model yordamida muayyan hudud yoki tarmoqda soliq yukini oshirish yoki kamaytirishning iqtisodiy faollik va byudjet daromadlariga qanday ta'sir ko'rsatishi raqamli ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Bu esa soliq mexanizmlarini iqtisodiyot tarmoqlarini davlat tomonidan maqsadli tartibga solishning moslashuvchan va ilmiy asoslangan instrumentiga aylantiradi. Shu bilan birga, korxonalar uchun ham soliq yukining rentabellik va mehnat unumdorligiga bog'liqligini aniqlash investitsiyalarni rejalashtirish va moliyaviy strategiyani takomillashtirishga xizmat qiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan tadqiqotlar soliq mexanizmlarining makro va struktur darajadagi rolini ochib bergan bo'lsa, Yudina va hammualliflar (2025) ushbu masalani investitsion va innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish nuqtai nazaridan chuqurlashtiradi. Muallif soliq siyosatini innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi maxsus instrumentlar tizimi sifatida talqin etib, amaldagi soliq tizimining rag'batlantiruvchi funksiyasi yetarli darajada ishlayotganini innovatsion korxonalar sonining kamayishi va innovatsion mahsulot ulushining pastligi bilan izohlaydi. Nazariy jihatdan soliq imtiyozlari, chegirmalar va maxsus rejimlar innovatsion rivojlanishning institutsional omili sifatida asoslanadi. Amaliy jihatdan esa innovatsion subyektlar uchun alohida soliq rejimini joriy etish, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar xarajatlari, yuqori malakali mutaxassislar va texnologik uskunalarga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'yicha soliq preferensiyalarini kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi.

Mazkur yondashuv innovatsion rivojlanish strategiyasi nuqtai nazaridan asosli ko'rinadi, chunki soliq rag'batlari texnologik yangilanishni tezlashtirishi mumkin. Shu bilan birga, maxsus rejimlarning samaradorligi aniq mezonlar va monitoring mexanizmlari bilan mustahkamlanmasa, ular fiskal yo'qotishlar yoki imtiyozlardan noto'g'ri foydalanish xavfini keltirib chiqarishi ehtimoldan xoli emas.

Tarmoq darajasida differensial yondashuv masalasi Huzela (2025) tomonidan sug'urta bozori misolida ko'rib chiqiladi. Muallif "sug'urta bozorining solikli tartibga solinishi" tushunchasiga subyekt, obyekt, usullar va instrumentlarni qamrab oluvchi mualliflik ta'rifini beradi hamda risklarni joylashtirish va qayta sug'urtalash xususiyatlariga mos soliq instrumentlari tasnifini ishlab chiqadi. Amaliy tahlil natijasida amaldagi tizimdagi ikki martalik soliqqa tortish, differensial stavkalar yetishmasligi va moslashmagan imtiyozlar kabi muammolar aniqlanib, sug'urta faoliyati turiga qarab diferensial stavkalar hamda risklarni qayta taqsimlashga mos maxsus soliq normalarini joriy etish taklif etiladi. Bu yondashuv soliq mexanizmlarini aniq sektor xususiyatlariga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu pozitsiya bilan qisman qo'shilish mumkin, chunki sug'urta bozori o'ziga xos xususiyatlarga ega va umumiy soliq rejimi doirasida uning barcha jihatlarini inobatga olinmaydi. Biroq differensial stavkalar joriy etilishi soliq tizimining murakkablashuviga olib kelmasligi, soddalik va shaffoflik tamoyillari saqlanishi zarur deb xisoblaymiz.

Makroiqtisodiy tiklanish kontekstida boshqa bir guruh iqtisodchi olimlar soliq siyosatining iqtisodiy o'sishga ta'sirini empirik model asosida tahlil qiladi (Kaneva va hammualliflar, 2022). Markaziy Yevropa va Boltiqbo'yi davlatlari ma'lumotlari asosida olib borilgan tadqiqot soliq yukining ortishi YaIM jon boshiga o'sishni pasaytirishini, bandlik va investitsiya ulushining oshishi esa iqtisodiy o'sishni tezlashtirishini ko'rsatadi. Amaliy tavsiyalar sifatida soliq stavkalarini pasaytirish, iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi instrumentlarni qo'llash hamda soliq ma'murchiligi va kompians tizimini kuchaytirish zarurligi qayd etiladi. Bu esa soliq mexanizmlarining tiklanish jarayonida barqarorlashtiruvchi rolini namoyon etadi. Bu xulosalar makroiqtisodiy barqarorlikni tiklash sharoitida dolzarbdir, ayniqsa qisqa muddatli rag'batlantirish siyosati nuqtai nazaridan. Shunga qaramay, uzoq muddatli istiqbolda fiskal barqarorlikni ta'minlash uchun soliq stavkalarini pasaytirish bilan birga soliq bazasini kengaytirish va ma'murchilikni takomillashtirish zarurligi alohida ta'kidlanishi lozim.

Soliq yukini optimallashtirish masalasi Chepulyanis va Mokina (2025) tomonidan motivatsion yondashuv asosida tahlil qilinadi. Mualliflar "soliq yuki" va "soliq motivatsiyasi" tushunchalarini tizimlashtirib, soliq yukining darajasi davlat va biznes manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni belgilashini ta'kidlaydi. Soliq motivatsiyasi prinsiplari sanalgan rag'bat, adolat va barqarorlik asosida soliq yukini bosqichma-bosqich optimallashtirish, imtiyozlar va differensial stavkalarni maqsadli qo'llash orqali investitsiyalarni ko'paytirish, tadbirkorlik faolligini oshirish va byudjet daromadlarini barqarorlashtirish mumkinligi asoslanadi. Mazkur konsepsiya muvozanat tamoyiliga asoslangani bilan e'tiborga loyiq, chunki soliq tizimi iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi instrument sifatida ishlashi zarur. Biroq soliq yukini optimallashtirish jarayonida byudjet barqarorligi va ijtimoiy majburiyatlar ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Alikaeva va hammualliflar (2020) kichik va o'rta biznesni (KO'B) solikli tartibga solishning alohida obyekti sifatida ko'rib, ushbu sektorning iqtisodiy o'sish, bandlik va innovatsiyalardagi rolini nazariy jihatdan asoslaydi. Muallif soliqlar yordamida tartibga solishning vazifasi faqat fiskal daromadlarni shakllantirish emas, balki YaIM o'sishi, rentabellik va aholi farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishdan iborat ekanini ta'kidlaydi hamda KO'B sektori uchun maxsus va yengillashtirilgan soliq rejimlarini qo'llash zarurligini asoslaydi. Kichik biznesni differensial soliqqa tortish iqtisodiyot tarmoqlarini davlat tomonidan maqsadli qo'llab-quvvatlash konsepsiyasiga to'liq mos keladi. Biroq bunday rejimlar vaqtinchalik va

natijadorlik indikatorlariga bog'langan bo'lishi zarur, aks holda ular uzoq muddatda bozor muvozanatini buzishi mumkin.

Koppl va Schratzenstaller (2022) karbon solig'i bo'yicha empirik adabiyotlarni tizimlashtirib, ekologik soliqlarning CO₂ chiqindilarini kamaytirishda samarali ekanini hamda ko'p hollarda iqtisodiy o'sishga sezilarli salbiy zarba bermasligini ko'rsatadi. Daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmi esa ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim omil sifatida ajratiladi. Ushbu xulosalar soliq siyosatining nafaqat fiskal, balki ekologik va tarkibiy maqsadlarni ham amalga oshirishi mumkinligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, karbon solig'ini joriy etishda milliy sanoat tuzilmasi va energiya intensivligi inobatga olinishi, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarga salbiy ta'sir ehtimoli puxta baholanishi zarur.

Ren va Albrecht (2023) ekologik soliq va aylana iqtisodiyot innovatsiyasi (CEI) o'rtasidagi bog'liqlikni sektorlar kesimida tahlil qilib, differensial yondashuv zarurligini asoslaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ekologik soliq ishlab chiqarish sektorida innovatsiyani rag'batlantirishi mumkin, biroq boshqa tarmoqlarda teskari ta'sir kuzatiladi. Shuni qayd etish joizki, soliq mexanizmlarini tarmoqlar kesimida differensiallash nazariy-metodologik jihatdan asosli yo'nalishdir. Aynan sektor xususiyatlarini inobatga olgan holda soliq instrumentlarini kombinatsiyalash iqtisodiyot tarmoqlarini samarali tartibga solishning muhim sharti hisoblanadi.

Razborska va Serzhenik (2020) korporativ daromad solig'ini byudjet taqchilligi sharoitida iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida ko'rib, soliq bazasini kengaytirish va ma'murchilikni takomillashtirish zarurligini asoslaydi. Foyda solig'ining fiskal samaradorligini oshirish, shu bilan birga soliq bosimini kamaytirish masalasi alohida muhokama qilinadi. Mazkur yondashuvga ko'ra fiskal barqarorlikni ta'minlash soliq mexanizmlarining asosiy sharti bo'lib, tarkibiy transformatsiyalarni moliyalashtirish uchun zarur resurs bazasini yaratadi. Biroq soliq bosimini kamaytirish va byudjetni to'ldirish o'rtasidagi muvozanatni topish empirik hisob-kitoblarga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim deb xisoblaymiz.

Ko'rib chiqilgan tadqiqotlar soliq mexanizmlarining iqtisodiyot tarmoqlarini davlat tomonidan tartibga solishdagi muhim va ko'p qirrali rolini tasdiqlaydi. Ular differensial va maqsadli soliq yondashuvi tarmoqlar rivojlanishini rag'batlantirishda samarali vosita bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, soliq imtiyozlarini haddan tashqari kengaytirish fiskal barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud. Shuning uchun soliq mexanizmlarini qo'llash empirik asoslangan, aniq mezonlarga tayangan va vaqtinchalik xarakterga ega bo'lishi zarur.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan nazariy va empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, soliq mexanizmi iqtisodiyot tarmoqlarini davlat tomonidan tartibga solishning markaziy va ko'p funksiyali instrumenti hisoblanadi. Klassik iqtisodiy maktablardan boshlab zamonaviy institutsional va empirik yondashuvlarga bo'lgan nazariy evolyutsiya soliqlarning faqat fiskal vosita emas, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, struktur transformatsiyalarni rag'batlantirish va ustuvor tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmi sifatida shakllanganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanish darajasi, kapital sig'imi, innovatsion salohiyati va ijtimoiy ahamiyati jihatidan o'zaro sezilarli farqlanishini ko'rsatdi. Shu bois yagona va bir xil soliq yondashuvini barcha tarmoqlarga tatbiq etish iqtisodiy samaradorlikni cheklashi mumkin. Differensial, maqsadli va sektor xususiyatlariga moslashtirilgan soliq siyosati investitsiya faolligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash imkonini beradi. Ayniqsa, innovatsion, eksportga yo'naltirilgan, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlar uchun selektiv soliq instrumentlari iqtisodiy modernizatsiyani jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, tahlillar soliq imtiyozlari va preferensiyalarining haddan tashqari kengaytirilishi fiskal barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi, byudjet daromadlari qisqarishi

hamda soliq tizimida nomutanosibliklar yuzaga kelishiga olib kelishi mumkinligini ko'rsatdi. Shu sababli soliq imtiyozlari aniq maqsadli, vaqtinchalik hamda natijadorlik ko'rsatkichlari asosida joriy etilishi zarur. Soliq mexanizmlarining fiskal va rag'batlantiruvchi funksiyalari o'rtasida muvozanatni ta'minlash iqtisodiyot tarmoqlarini samarali tartibga solishning asosiy sharti hisoblanadi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini soliq mexanizmi orqali davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, tarkibiy o'zgarishlarni boshqarish va institutsional rivojlanishni jadallashtirishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda empirik asoslangan tadqiqotlarni chuqurlashtirish hamda ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflarni iqtisodiy siyosat amaliyotiga joriy etish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining strategik vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Adabiyotlar /Jumepamypa / Reference:

Alikaeva M., Ksanayeva M., Prigoda L. (2020). *Methodical instruments of state tax regulation of development of small and medium businesses in Russia*. pp. 1-8

Buchanan J.M., Wagner R.E. (1977). *Democracy in deficit: The political legacy of Lord Keynes*. New York: Academic Press. 195 p.

Chepulyanis A., Mokina N. (2025). *Theoretical aspects of tax motivation and tax burden optimization*. Moscow university bulletin on state audit. pp. 38-51

Friedman M. (1962). *Capitalism and Freedom*. Chicago: University of Chicago Press. 208 p.

Huzela I. (2025). *Theoretical conceptualization of tax regulation of the insurance market*. World of finance. pp. 31-43

Ivanchenkov V. (2025). *Tax instruments in ensuring structural transformations of the economy*. Economic scope. p. 174-178

Kaneva T., Chugunov I., Pasichnyi M., Nikitishin A., Husarevych N. (2022). *Tax Policy for Economic Recovery and Sustainable Development After COVID-19*. Problemy Ekorozwoju. pp. 102-109

Köppl A., Schratzenstaller M. (2022). *Carbon taxation: A review of the empirical literature*. Journal of Economic Surveys. pp. 1353-1388

Laffer A. *The Economics of the tax revolt : A reader*. Harcourt Brace Jovanovich. 1979. 138 p.

Marshall A. (1890) *Principles of Economics: An Introductory Volume*. 8th ed., Macmillan, 1920. 871 p.

Null O. (2025). *State Tax Regulation of Enterprises in the Conditions of Digitalization*. International Journal of Accounting, Finance and Risk Management. pp. 86-93

Petty W. (1899). *A Treatise of Taxes and Contributions*. In C. H. Hull (Ed.), *The Economic Writings of Sir William Petty* (Vol. 1, pp. 1-97). Cambridge: Cambridge University Press.

Pigou A.C. *The Economics of Welfare*. London :Macmillan, 1924. 872p.

Poliakov M. (2025). *The Tax Policy of the State in the System of Regulation of Economic Development*. The Problems of Economy. p. 335-341.

Razborska O., Serzhenik Y. (2020). *Transformation processes of income tax collection in conditions of budget deficit*. Economic Analysis. pp. 90-100

Ren Q., Albrecht J. (2023). *Toward circular economy: The impact of policy instruments on circular economy innovation for European small medium enterprises*. Ecological Economics.

Ricardo D. (1817). *On the Principles of Political Economy and Taxation*. In P. Sraffa (Ed.), *The Works and Correspondence of David Ricardo* (Vol. 1). Cambridge University Press. 2015. 616p.

- Samuelson P.A. (1948). *Economics, an introductory analysis*. New York: McGraw-Hill. 622 p.
- Smith A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. Oxford World's Classics. London, England: Oxford University Press. 2008. 688p.
- Stiglitz's J. (1986) *Economics of the Public Sector*. W.W.Norton & Company. 599 p.
- Yudina S., Martyniuk F., Umarov A. (2025). *Theoretical aspects of tax regulation of investment processes at domestic enterprises*. *Market Infrastructure*. p. 74-81
- Белова А.И. Становление взглядов на роль налогов как инструмента фискальной политики. *Вестник Челябинского государственного университета*. 2012. № 9 (263). Экономика. Вып. 37. С. 36-40.